

BIOLOGIK TA'LIM MUAMMOLARINI BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASIGA YO'NALTIRGAN HOLDA BARTARAF ETISH

Bekmatova E'zoza Elmurod qizi

*Magistrant, Chirchiq davlat pedagogika universiteti. Toshkent, O'zbekiston
Respublikasi.*

Bugungi kunda butun dunyoga xavf solayotgan biologik muammolar oldida ilmiy, ta'limi hamda tarbiyaviy yechimlar turibdi. Shu qatorda ekologik va biologik muammolar yechimi uchun biologik ta'limning maqsadi hayotning ma'nosini eng oliy qadriyat sifatida tushunishi kerak bo'lgan biologik va ekologik savodxon shaxsni tayyorlashdir. Bunday shaxs ekologik madaniyatga ega bo'lishi va nafaqat biologik, balki u bilan turdosh bilim sohalarida ham mukammal yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Biologiya o'qitish metodikasida ham biologik ta'limning eng muhim maqsadlaridan biri maktab o'quvchilarida tabiatning yaxlitligi va birligi, uning tizimli va darajali tuzilishi, xilma-xilligi, inson va tabiatning birligiga asoslangan ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu ulkan vazifalarni bajarishda umumta'lim, o'rta maxsus maktablar jamoalari oldida ta'lim berishning yangi, samarali yo'llari, vositalarini ishlab chiqish, uni amaliyotga kiritishdek dolzarb vazifalar turibdi. Undan tashqari, yoshlarimizga faqat fan asoslaridan bilimlar berish bilan cheklanmasdan ularni har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash zarur. Hozirgi zamondagi eng muhim vazifalardan biri-biologik xilma-xillikni saqlash masalasidir. Ma'lumki, insonlarnig tabiatga ta'sirining kuchayib borishi o'z novbatida turli organizmlarning yashash sharoitlarini buzilishiga, ularning yashash joylarini ekologik holatlarini yomonlashuviga ta'sir etmoqda. Bu o'z novbatida tirik organizmlarning sonini kamayib ketishi, ba'zi turlarni umuman yo'q bo'lib ketishiga, "Qizil kitob" saxifalarini yana ko'payishiga olib kelmoqda. Shu boisdan endilikdagi dolzarb masalalardan yana biri, soni kamayib borayotgan o'simlk va hayvonlarni saqlab qolishdek murakkab vazifani bajarishlikni taqazo etadi. Bu vazifani bajarishni muhim shartlaridan biri - kishilarni biologik va ekologik savodxonliklarini oshirish orqali bajariladi. Yuqoridagilarni xisobga olgan holda insonlarni salomatliklarini muhofaza qilishda biologlar oldida katta vazifalar turibdi. Ma'lumki, insonlar avvalo nimalarni bilishi, qo'lidan qanday ishlar kelishi bilan tavsiflanadi. Binobarin, ilmli, ma'lum ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalash zamonamizning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Biroq, ta'limda uzoq yillardan buyon qo'llanilayotgan an'anaviy ish uslublari o'quvchilarini dars materialini faqat yodlash, takrorlab berishga qaratilgan bo'lib, bu usul yoshlarni ijodiy bilim olishga, ma'lum yo'nalishlarda malaka va ko'nikmalar hosil qilishlariga yetarli imkon bermas edi. Biologiya ta'limidagi bu muammolarni hal etish uchun amaldagi ish uslublarimizni qayta ko'rib chiqish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim-tarbiya ishlarini zamon talablariga

keltirish, ta'lismuassasalari uchun yuqori salohiyatga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ta'limning material bazalarini yanada boyitish kabi ishlarni amalgamoshirishlik zarur.

Xulosa: Biologiyaning asosiy qiymati shundaki, bu ko'plab istiqbolli fanlar uchun asos va nazariy asosdir, masalan, genetika va bionika kabi. Hozirgi vaqtda, texnologiyalar inson tanasiga zarar yetkazmagan holda profilaktika va davolanish uchun dori-darmonlarni yaratish imkoniga ega. Natijada nafaqat hayotning davomiyligini balki uning sifatini ham rivojlantirish mumkin. Zamonaviy jamiyatda biologiyaning asosiy roli shundaki, uning bilimlari zarur bo'lgan sohalar, masalan, giyohvandlik, qishloq xo'jaligi, qurilish va kosmosni rivojlantirishi zarur. Bugungi kundagi ekologik muammolar yechimiga biologik qoidalarga rioya qilish, shuningdek, ekologik fikrlash asosida progressiv biotexnologiyalarning keng joriy etilishi bilan erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Modern problems of modernization of biological education in high school" Vorobyova T.G.
2. "Состояние проблем биологического образования в практике обучения" Научная статья Пивоварова Л.В.
3. "Biologiya fanining yutuqlari, zamonaviy ta'limning dolzarb muammolari" Dovudova Hayitgul Nishonovna
4. "Using of new methods in the teaching of biology" Akimbekova G
5. "Biologia fanining dozarb masalalari" АДУ ректори биология фанлари доктори, профессор А.С.Юлдашев.